

2025
№1

ISSN 2181-6131



TAFAKKUR ZIYOSI

ILMIY-USLUBIY JURNAL

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa, tarix va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. Jurnalning indeks raqami: 3535



Suratda Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston
Milliy bog'i. Toshkent shahri, O'zbekiston.

JDPU TAHRIRIY
NASHRIYOT
BO'LIMI



2025 №1

TAFAKKUR ZIYOSI

ILMIY-USLUBIY JURNAL

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa, tarix va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan. Jurnalning index raqami: 3535



JDPU TAHRIRIY
NASHRIYOT
BO'LIMI



BOSH MUHARRIR

Shavkat Sharipov – pedagogika fanlari doktori, professor.

MUHARRIR O'RINBOSARI

Farrux Aqchayev – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

MAS'UL KOTIB

Abdug'afur Abdurahmonov – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

TARJIMONLAR:

Zubayda Jumayeva – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (rus tili bo'yicha).

Eldar Hasanov – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (rus tili bo'yicha).

Anora Jabborova – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (ingliz tili bo'yicha).

Dildora Baxriddinova – katta o'qituvchi (ingliz tili bo'yicha).

MUSAHHIHLAR

Feruza Jumayeva – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

Murodulla Jo'rayev – filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent.

SAHIFALOVCHILAR

Sirojiddin Turg'unboyev

Zulayxo Shakarova

MUASSIS – Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti.

Jurnal yilda 4 marta (har chorakda) chop etiladi.

Matnlarda foydalanilgan iqtibos va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar mas'uldirlar.

Jurnaldan ma'lumot ko'chirib olinganda, manba qayd etilishi shart.

Manzil: 130100, Jizzax shahri, Sharof Rashidov ko'chasi, 4-uy.

Telefon: +998 72 226 02 93,
+998 93 298 22 12

Faks: +998 72 226 46 56

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

- **Anatoliy Sagdullayev**, tarix fanlari doktori, akademik
- **Komiljon Tojiboyev**, biologiya fanlari doktori, akademik
- **Andrey Zuyev**, Novosibirsk davlat universitetining Gumanitar instituti professori, tarix fanlari doktori (Rossiya)
- **Stiven Korbet**, Portsmud universiteti, tillar va amaliy tilshunoslik yo'nalishi professori (Buyuk Britaniya)
- **Seyko Wazake**, Chibu universiteti doktori (Yaponiya)
- **Donina Lyudmila**, Sankt-Peterburg davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi (Rossiya)
- **Jakelin Duglas**, Norwich tillar o'qitish instituti professori (Buyuk Britaniya)
- **Himmat Karadal**, Izzet Baysal universiteti professori (Turkiya)
- **Tuba Yilmaz**, Nejmiddin Erbakan universiteti professori (Turkiya)
- **G'ayrat Qodirov**, biologiya fanlari nomzodi, dotsent
- **Botir To'xtamishov**, texnika fanlari nomzodi, dotsent
- **Sarvar Nazarqosimov**, sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
- **Qozoqboy Yo'ldoshev**, pedagogika fanlari doktori, professor
- **Usmonjon Qosimov**, filologiya fanlari doktori, professor
- **Abdug'afur Mamatov**, filologiya fanlari doktori, professor
- **Umrzoq Jumanazarov**, filologiya fanlari doktori, professor
- **Faniya Axmedshina**, tarix fanlari doktori, professor
- **Shokir G'afarov**, tarix fanlari doktori, professor
- **Baxti Ochilova**, falsafa fanlari doktori, professor
- **Hamid Meliyev**, pedagogika fanlari doktori, professor
- **Xudoybergan Mavlonov**, biologiya fanlari doktori, dotsent
- **Qo'chqor Hakimov**, geografiya fanlari nomzodi, dotsent.
- **Mo'min Hoshimxonov**, falsafa, filologiya va pedagogika fanlari doktori
- **Furqat Axmedov**, pedagogika fanlari nomzodi, professor
- **Akbar Saitkasimov**, falsafa fanlari doktori, professor
- **Zuhra Yaxshiyeva**, kimyo fanlari doktori, professor
- **Abdunazar Nurmonov**, pedagogika fanlari doktori, professor
- **Rustam Abdurasulov**, psixologiya fanlari doktori, dotsent
- **Marat Sultonov**, kimyo fanlari doktori, professor
- **Raximboy Yarmatov**, pedagogika fanlari doktori, dotsent
- **Ilyos Islamov**, tarix fanlari doktori, dotsent
- **Muxtorqul Pardayev**, tarix fanlari nomzodi, dotsent
- **Rabbim Yusupov**, texnika fanlari nomzodi, dotsent
- **Oleg Kim**, filologiyafanlari nomzodi, dotsent
- **Abduvali Shamshiyev**, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent
- **Yulduz Karimova**, filologiya fanlari nomzodi, dotsent
- **Kamoliddin Zoyirov**, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
- **Sherali Abduraimov**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
- **Feruza Jumayeva**, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent
- **Bobomurod Toshboyev**, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining filologiya, falsafa, tarix va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal Jizzax viloyati Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasidan 2020-yil 25-aprelda 06-042 raqam bilan qayta ro'yxatga olingan. Jurnalning xalqaro ISSN raqami: 2181-6131.

2025-yil 25-mart kuni bosmaxonaga topshirildi.

Qog'oz bichimi A4.

Buyurtma: _____

Nashr adadi: 100

JDPU TAHRIRIY
NASHRIYOT
BO'LIMI



MUNDARIJA

01. TAQVIM

Alisher Navoiyning orifiy, irfoniy va gumanistik qarashlari	11
Mo'min Hoshimxonov – f.f va p.f.d., Jizzax davlat pedagogika universiteti	
“Boburnoma”da sifat yasovchi forscha fe’l va sifat doshlar	20
Abdulhamid Abdumo‘minovich Abduvaliyev – katta o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Ziyoda Norqo‘ziyevna Abduvaliyeva – katta o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	

02. PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA'LIM

Ta'lim tizimida talabalar innovatsion tafakkurini rivojlantirish texnologiyalari	25
Davron Abdurakibovich Alibekov – f.f.b.f.d., dotsent, O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali	
Intellectual tizimlar vositasida talabalarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda pedagogik tamoyillar	31
Botir Baxtiyor o'g'li Abdullayev –p.f.b.f.d., dotsent, Toshkent kimyo–texnologiya instituti Yangiyer filiali	
Oliy ta'lim muassasalarida talaba qizlarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari	37
Refide Izmerovna Ablyakimova – katta o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Professional ta'lim muassasalari maxsus fan o'qituvchilarining mediakompetentligini rivojlantirish usullari	42
Akmal Rustamovich Hafizov – o'quv ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, Buxoro neft va gaz sanoati kolleji	
Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlashni oshirish	46
Abdurasul Mirzaakbarovich Mirzaakbarov – o'qituvchi, Namangan davlat pedagogika instituti	
Decoding terminology: from basics to advanced terms	49
Iroda Jumanovna Mamarasulova – teacher, Jizzakh State Pedagogical University	
Professional ta'lim maxsus fanlarni o'qitishda sun'iy intellektdan foydalanish metodik funksiyasi. ...	54
Farrux Furqat o'g'li Sharopov – o'qituvchi, Buxoro energetika, neft va gaz sanoati texnikumi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida muloqotchanlikni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari	60
Gulchexraxon Abidjanovna Muladjonova – o'qituvchi, Andijon pedagogika instituti	
Improving the use of pedagogical software tools in students' independent self-development in an information-based educational environment	65
Temurbek Maxsetbaevich Kudenov – assistant teacher, Nukus State Pedagogical Institute	
STEAM fanini raqamli texnologiyalar orqali rivojlantirish	71
Sitara Muzaffar qizi Jamolova – tayanch doktorant, Shahrisabz davlat pedagogika instituti	

03. AMALIY FANLAR

O'quvchilarda milliy-iftixor tuyg'usini rivojlantirishda kurash sportidan foydalanish imkoniyatlari	75
Furkat Quldashevich Axmedov – p.f.n., professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Joxon Quldashovich Axmedov – dotsent, Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali	
Ja'sur Ulug'bek o'g'li Uluqmurotov – magistr, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
“Arxitekturaviy qalamtasvir, rangtasvir va haykaltaroshlik” fanidan talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish	82
Nurmon Ochilovich Berdiyev – dotsent, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti	
Chizmatasvir darslarida bo'lajak arxitektor-dizaynerlarni kasbiy faoliyatga tayorlash	88
Sherzod Choriyevich Bekmirov – katta o'qituvchi, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti	
O'quvchi-yoshlarda musiqiy tafakkur va uni rivojlantirish muammolari	93
Ahmadjon Qodirovich Jumayev – katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Talabalarning jismoniy tarbiya bo'yicha shaxsiy kompetensiyalarini shakllantirish	99
Furkat Quldashevich Axmedov – p.f.n., professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Eldor Ziyat o'g'li Nurmatov – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Sardor Furkat o'g'li Quldashev – o'qituvchi, Samarqand davlat tibbiyot universiteti	
Malakali voleybolchi qizlarning to'pni o'yinga kiritish texnikasi aniqligini nazariy tahlili	106
Ilhom Xaydarov – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	

04. IJTIMOIIY FANLAR

Jizzax vohasi ibtidoiy davr tarixining o'rganilishi haqida	112
Furkat Eshboyevich Toshboyev – professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Nozima Bahodir qizi Eshmamatova – magistrant, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Activities of Samarkand madrasas during the Russian empire	117
Shakir Gafforov – Professor, Doctor of History, Samarkand State University	
Ibn Xalduinning “Muqaddima”sida tarix falsafasi	128
Baxti Muradovna Ochilova – f.f.d., professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Iskandar Amanov – talaba, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Alisher Navoiy tafakkurida oriflik va irfon ilmi rivojining muhim gumanistik jihatlari talqini	132
Mo'min Hoshimxonov – f.f. va p.f.d., Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Nanotexnologiyalar sohasidagi axloqiy va estetik muammolar	138
Hayot Xaitovich Ashirmatov – f.f.b.f.d., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Oila tuzilmalarining o'zgarishi va ularning zamonaviy jamiyatdagi ijtimoiy xulq-atvorga ta'siri	143
Nazira Abdusattorovna Muxtorova – deputat, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi	
Neokonservativ “Aql markazlari”ning AQSh tashqi siyosatiga ta'siri (XXI asr boshlari)	149
Abrar Saloxiddinovich Turayev – s.f.b.f.d., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	

XIX asrning ikkinchi yarmida Samarqand vohasining suv xo'jaligi tarixidan.	157
Rustam Sharipovich Xoliqulov – t.f.n., dotsent, Samarqand davlat pedagogika universiteti	
Bobur Mirzaboyevich Bobodustov – assistent, Samarqand davlat pedagogika universiteti	
Zarafshon vohasida viloyat gazetalari faoliyati tarixi (1991-2021-yillar)	164
Abdug'affor Abdurahmonov – t.f.b.f.d., O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti	
The scientific legacy of Sharifjan Makhdum Sadri Ziya and his private library	174
Dilnavoz Narzikulovna Tagoyeva – teacher, Doctor of Philosophy, Bukhara State Pedagogical Institute	
"Harakatlar strategiyasidan – taraqqiyot strategiyasi sari" ijtimoiy g'oyasi	
Yangi O'zbekistonda ijtimoiy g'oyalar transformatsiyasining metodologik manbai sifatida	180
Mansur Jamxur o'g'li Nabiyeu – katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Qushayriy, Suhravardiy va Ibn Arabiy qarashlarida hol va maqom tushunchasi.	186
Davronbek Hoshimovich Qodirov – PhD, Buxoro davlat universiteti	
Amoralizm va immoralizmni oldini olishda Islom dini qoidalarining ahamiyati	191
Odil Nodirovich Toshpulatov – bo'lim boshlig'i, Oliy ta'limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi	

05. FILOLOGIYA FANLARI

Исторические и культурные факторы, способствующие заимствованию.	196
Абдукарим Сулайманович Мусаев – д.ф.ф.н, и.о профессор, Джизакский государственный педагогический университет	
Мухлиса Кучкор кизи Абдухалилова – магистрант, Джизакский государственный педагогический университет	
Sleng birliklari hosil bo'lishning morfologik usuli	200
Abduvali Musayev – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Oziq-ovqat konsepti: J.R.R.Tolkinning fentezi dunyosidagi taomlar tasvirlari	204
Nargiza Qo'chqarovna Bo'riyeva – dotsent, PhD, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Iqtisodiy-moliyaviy tematikali matnlarning pragmatik xususiyatlari	209
Shoxida Abdullayeva – f.f.b.f.d., dotsent, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti	
Amerika romantizm adabiyoti vakili Edgar Po "Qarg'a" poemasi misolida	216
Komila Axrorovna Fayziyeva – f.f.d., dotsent, Iqtisodiyot va pedagogika universiteti	
Выражение символических знаков в этнофразах.	220
Зубайда Шавкатовна Жумаева – д.ф.ф.н., доцент, Казанский Федеральный университет в городе Джизак	
Qiziltepa tumani toponimikasining tarixiy va madaniy aspekti:	
oykonimlar, etnotoponimlar va ularning paydo bo'lish jarayoni	224
Nurbek O'ktamovich G'aniyev – dotsent, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti	
Yasama so'z va ularning o'rganilishi.	229
Akmal Raxmatullayevich Tursunov – dotsent, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti	

Zulfiya poetik maktabining taraqqiyot tamoyillari	234
Ma'mura Yusupova – direktor o'rinbosari, Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ijod maktabi	
O'zbek adabiyotshunosligida modernizm muammolarining o'rganilishi	238
Dilbar Eshboyevna Tangirova – katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Zulfiya she'rlarida frazemalarning qo'llanilishi	240
Shaxribon Gulmurodovna Musurmankulova – katta o'qituvchi, Guliston davlat pedagogika instituti Hamrooy Qahramon qizi Safarova – talaba, Guliston davlat pedagogika instituti	
Turkum romanlarda badiiy nutq masalasi	243
Dilnoza Nematullayeva To'rayeva – f.f.b.f.d., dotsent, Guliston davlat universiteti	

06. TABIIY VA ANIQ FANLAR

On the solution of some linear partially integral equation	249
Ulug'bek Abdukadirovich Soatov – PhD of physics and mathematics, associate professor, Jizzakh Polytechnic Institute Abduvali Shamshiyev – PhD in economics, associate professor, Jizzakh State Pedagogical University	
Dual ta'limni "Tarmoq – korxona – universitet" darajasida tashkil etishni bo'lajak muhandislarning kasbiy kompetensiyalarini shakllanishidagi ahamiyati	254
Ismoil Norkobilovich Kodirov – f.m.f.n., professor, Qarshi muhandislik iqtisodiyot instituti	
Geografik obyektlarga nom tanlashning huquqiy-me'yoriy asoslari	260
Koshkar Makkamovich Hakimov – g.f.n., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti Mashrab Rustamovich Usmanov – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Atom elektron qavatlarining tuzilishi mavzusini interfaol ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish	264
Dilafroz Muradova – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Neytrino astronomiyasining erishgan natijalari orqali kosmologiyani o'rganish samaradorligi	269
Anvar Razzoqovich Qurbonov – dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti Jaxongir Abdumalikovich Xotamov – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Raqamli transformatsiyalash (neft-gaz) muhandislarini ixtirochilik faoliyatiga tayyorlashga ta'sir etuvchi omillar va xorijiy tajribalar	273
Marjona Qiyom qizi To'raqulova – p.f.f.d., dotsent, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti	
Raqamli ta'lim muhitida fizika fanini o'qitishning o'ziga xos jihatlari	280
Samar Sattor o'g'li Alikulov – dotsent, Jizzax politexnika instituti	
Bo'lajak o'qituvchilarning matematik tayyorgarligini elektron ta'lim resurslari orqali rivojlantirishning ahamiyati	285
Xaqnazar Xushmirzayevich Xamzayev – p.f.b.f.d., dotsent, Termiz iqtisodiyot va servis universiteti Nargiza Nuriddinovna Tuychiyeva – mustaqil tadqiqotchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Aldegidning olinishi va kimyoviy xossalarni klaster usulida o'qitish	293
Habiba Toshboyevna To'rayeva – p.f.b.f.d., Chirchiq davlat pedagogika universiteti	

Fizika darslarida o'quvchilarda ekologiyaga oid bilimlarni shakllantirishda integrativ yondashuvning o'rni	297
Orzigul Shonazarovna Eshtuxtarova – katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	

On certain aspects of teaching methods for solving chemistry problems	304
Komila Khudoiberdievna Abduvaliyeva — senior lecturer, Jizzakh State Pedagogical University	
Sarvinov Sadridinovna Xojiyeva — senior lecturer, Jizzakh State Pedagogical University	

07. YOSH TADQIQOTCHILAR

"Diskret matematika va matematik mantiq" fanini o'qitishda "BOOL_TEST" dasturidan foydalanish metodikasi	310
Javlon Yusupovich Xolmatov – katta o'qituvchi, O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali	

Baxt va hayotning mazmuni masalasi haqida ayrim mulohazalar	315
Aziza Po'latovna To'rayeva – katta o'qituvchi, Qarshi davlat universiteti	

Ekologik madaniyatni shakllantirishda ekologik ta'limning o'rni va ahamiyati	319
Sitora Ayonovna Azamova – katta o'qituvchi, Shahrisabz davlat pedagogika instituti	
Zarina Lochin qizi Arolova – talaba, Shahrisabz davlat pedagogika instituti	

Tilning ijtimoiy vazifalari va ularning tadqiqiga doir muammolar	323
Mahliyo Hojiyevna Buxorova – katta o'qituvchi, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti	

Флоронимия как часть национальной картины мира	327
Зульфия Физулиевна Алиханова – преподаватель, Гулистанский государственный педагогический институт	

Особенности парентетических конструкций русского, узбекского и азербайджанского языков	333
Кулдаста Эйнуллаевна Кумметова – преподаватель, Гулистанский государственный педагогический институт	

Literary Critics on The "Twenties" of new realism in Russian literature of the 21st century	338
Elvina Abdulkhakovna Azimova – teacher, Jizzakh State Pedagogical University	

Наследие Джона Рональда Руэля Толкина	345
Руслан Арсенович Асанов – преподаватель, Гулистанский государственный педагогический институт	

Yuqori yarim tekislikdagi chorak aylanalar oilasi bo'yicha integral geometriya masalasi	350
Ixbol Iskandarovna Sadikova – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	

Ibn Arabiy ta'limotida ruhiy poklik va kamolotga yetishish masalalari	353
Mohlaroyim Shuxrat qizi Yarashova – o'qituvchi, Osiyo xalqaro universiteti	

Chorva kasalliklarini an'anaviy davolash usullari xususida (Jizzax vohasi misolida)	357
Muhammad Xolmumin o'g'li Tilavboyev – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida astronomiya o'qitishda kuzatuv ishlarini tashkil etish usullari ...	360
Obid Bahodir o'g'li Saydayev – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	

Perifraza tilshunoslik sohasida stilistik vosita sifatida	364
Shaxnoza Primkulovna Allayorova – o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romani tarjimalarida madaniy va milliy xususiyatlarni yetkazish muammolari	369
Kamola Khujumova – stajor o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Kognitiv lingvistikada konsept nazariyasi va uning tavsifi	374
Solijon Azizov – stajor o'qituvchi, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti	
Ingliz tilida energetikaga oid birliklarning sintaktik usulda yasalish tadqiqi	381
Zebo Meliyevna Nizomova – tayanch doktorant, Jizzax davlat pedagogika universiteti	
Xalq rivoyatlari va hikmatli so'zlar – o'quv jarayonini tashkil etishda ilmiy ma'lumotlar manbai sifatida	385
Saodat Dilshodovna Fayzullayeva – tayanch doktorant, Navoiy davlat universiteti	
Professional ta'lim muassasalari o'quvchilarida iqtisodiy kompetensiyani rivojlantirish jarayoni	390
Yulduz Boboxolovna Mingboyeva – mustaqil tadqiqotchi, Jizzax politexnika instituti	
XX asrning 40-yillarida Samarqand sanoatida xotin-qizlarning mehnat faoliyati va ularning ijtimoiy o'rni	395
Aziza Usarovna Shotemirova – tadqiqotchi, Samarqand davlat universiteti	
Jamiyat barqarorligini ta'minlashda yoshlar ijtimoiy manfaatlarini ro'yogga chiqarishning ahamiyati	400
Ja'farxon Isaxonov – mustaqil tadqiqotchi, Samarqand davlat chet tillar instituti, Jizzax shahar "Registon" o'quv markazi direktori	
Mahalla raislarining ma'naviy-axloqiy sifatlarini tizimli ta'lim jarayonida rivojlantirish xususiyatlari	404
Ikrom Muxtarovich Matkarimov – mustaqil tadqiqotchi, Urganch davlat pedagogika instituti	
Jamiyat taraqqiyotida inson resurslari ahamiyatining ijtimoiy-falsafiy tahlili	410
Suyarbek Amrullayevich Saydiyev – mustaqil tadqiqotchi, Samarqand chet tillari instituti	
Informatika va axborot texnologiyalari fanini o'qitishda ma'lumotlar bazasidan foydalanishning innovatsion texnologiyalari	414
Dilshod Pahlavonovich Nabiyeu – tayanch doktorant, Buxoro davlat pedagogika instituti	
Ichki nutqning shakllanishi va egosentrik nutqdan farqli tomonlari	419
Marjona Jinaydullo qizi Raxmonova – izlanuvchi, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashning pedagogik asoslari ..	422
E'zozaxon Baxrom q'izi Xaitova – magistrant, Shahrisabz davlat pedagogika instituti	
Ijodkor shaxsining badiiy asarda namoyon bo'lishi (To'ra Sulaymon lirikasi misolida)	427
Yorqinjon O'rmonali o'g'li Xayitboyev – magistrant, Guliston davlat universiteti	
Xolid Husayniyning "Ming quyosh shu'lasi" asarida obrazlar talqini	431
Sevinch Nurilla qizi Yaxshilikova – magistrant, Guliston davlat universiteti	

QUSHAYRIY, SUHRAVARDIY VA IBN ARABIY QARASHLARIDA HOL VA MAQOM TUSHUNCHASI

Davronbek Hoshimovich Qodirov – PhD, Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tasavvufdagi hol va maqom tushunchalarining falsafiy tahlili amalga oshiriladi. Hol va maqom soʻfiylar tomonidan qanday tushunilgani va ularning farqlari turli tasavvuf maktablari nuqtayi nazaridan koʻrib chiqiladi. Junayd Bagʻdodiy, Horis al-Muhosibiy, Qushayriy, Suhrawardiy va Ibn Arabiy kabi mutasavvufning qarashlari asosida hol va maqomning tabiati tadqiq etiladi.

Аннотация: В данной статье проводится философский анализ понятий “хал” и “макам” в суфизме. Рассматривается, как суфии понимали эти термины и различали их в различных школах суфизма. На основе взглядов таких мыслителей, как Джунайд Багдади, Харис ал-Мухасиб, Кушайри, Сухраварди и Ибн Араби, исследуется природа состояний и степеней духовного пути.

Abstract: This article presents a philosophical analysis of the concepts of “hāl” and “maqām” in Sufism. It examines how Sufis understood and distinguished these terms across different Sufi schools. Based on the views of thinkers such as Junayd Baghdadi, Harith al-Muhasibi, Qushayri, Suhrawardi, and Ibn Arabi, the nature of states and spiritual stations is explored.

Kalit soʻzlar: hol, maqom, tasavvuf, soʻfiylar, Junayd Bagʻdodiy, Qushayriy, Ibn Arabiy.

Ключевые слова: хал, макам, суфизм, суфии, Джунайд Багдади, Кушайри, Ибн Араби.

Keywords: hal, maqam, Sufism, Sufis, Junayd Baghdadi, Qushayri, Ibn Arabi.

Tasavvufda hol va maqom masalasi qadimdan bahs mavzusi boʻlib kelgan. Bu tushunchalar soʻfiylar tomonidan oʻzlarining ruhiy va maʼnaviy taraqqiyot bosqichlarini ifoda etish uchun ishlatilgan. Hol muvaqqat holat sifatida qabul qilingan boʻlsa, maqom solikning bosib oʻtadigan barqaror ruhiy martabasi hisoblanadi.

Tasavvufning eng muhim masalalaridan biri hol va maqomlarning toʻliq tahlil etilmaganligi hisoblanadi. Hol va maqomlarni umumiy holda bir oʻrinda koʻrish ushbu tushunchalarning maʼnosi bilan chambarchas bogʻliqdir. Soʻfiylar hol va maqomni oʻz feʼl-atvori va yashagan davriga koʻra belgilaganlar, shu sabab ham bir xil tushuncha baʼzan bir soʻfiyda boshqasiga nisbatan farq qiladi. Maqom yoki hol solikdan solikka qarab farqlanishi mumkin boʻlsa-da, bu muammoni hal qilishda minimal doirada olib, shunga mos ravishda cheklanilmasa, bu muammo echimi topilmay qoladi. Shu oʻrinda hol va maqomni tahlil qilishda tasavvufona nazariyalarni hamda

soʻfiylarning hol va maqomlar tahliliga oid fikr-mulohazalarini koʻrib chiqish maqsadga muvofiq boʻladi. Umuman olganda, ushbu masala jiddiy mustaqil tadqiqotni talab qiladi.

Tasavvuf tarixiga nazar tashlaydigan boʻlsak, bu muammo asosan, oʻz davrining eng koʻzga koʻringan soʻfiylaridan boʻlgan Junayd Bagʻdodiy va Horis al-Muhosibiy tomonidan hollarning davomiyligi borasida ilgari surilgan ikki qarama-qarshi yondashuvdan kelib chiqadi. Har ikkala soʻfiy ham tasavvufning eng yuqori pogʻonasida boʻlgan shaxslar boʻlganligi va boshqa soʻfiylarga kuchli taʼsiri tufayli ularning hol hamda maqom haqidagi farqli qarashlari bu atamalarni ajratib, oʻrganishda qiyinchilik tugʻdiradi.

Soʻfiylardan asosan Junayd Bagʻdodiyning: “Hol maʼlum bir paytda bandaga nozil boʻladigan vahiydir. Hol uning ichida boʻlgan holat va vaqtda paydo boʻlib, gʻoyib boʻladi”¹ deydi. Junayd Bagʻdodiyning bu fikri koʻpchilik tomonidan

1 ص 411، 1960، «تذكرة الدجال بكتكلا راد، فؤاد القل، فصوص الحلا، جارسال رصن وب».

qabul qilingan bo'lsa-da, Muhosibiyning holning davomiyligini ilgari surishi va o'z davrning mashhur so'fiylaridan biri Abu Usmon Hiriyning ushbu fikrni qo'llab-quvvatlash niyatida rizo holining davomiyligini aytishi so'fiylar orasida bu istilohlarning o'rnashib qolishini qiyinlashtirdi. Ayni paytda Xuroson va Iroq mutasavviflari orasida rizo tushunchasining hol yoki maqom ekanligi xususidagi bir-biriga qarama-qarshi fikrlari ushbu muammo yechimini yanada chigallashtirdi. Ayrim so'fiylar ushbu asosiy tushunchalar bilan bir qatorda holni ixlosli amallarning natijasi sifatida ko'rishi va hollarni maqomga yaqinlashtirishi ikkinchi darajali sabab sifatida namoyon bo'ladi.

Bu ikki bir-biriga zid fikrni uyg'unlashtirish maqsadida ba'zi bir so'fiylar o'z tajribalaridan kelib chiqib, yuqoridagi chalkashlikka chek qo'yish maqsadida ularni tahlil qilishga urindilar. Shu o'rinda, so'fiylar orasida tasavvuf tarixidagi hol va maqomlarni tahlil qilish natijasida uchta yirik nazariya shakllanganini ko'rishimiz mumkin. Hol va maqomlarni tahlil qilish borasida birinchi urinish Qushayriy, ikkinchisi Suhrevardiy va uchinchisi esa Ibn Arabiy tomonidan amalga oshirilgan. Ushbu uch nazariya hol va maqom so'zlarining ildiziga asoslanadi.

Maqom va hol tushunchasini ta'riflagan so'fiylar o'z tajribalariga tayangan bo'lsalar-da, aslida uning boshlang'ich nuqtasini ushbu atamalarning konseptual kelib chiqishi tashkil qilgan. Maqom va hol haqida gapirgan so'fiylar o'z tajribalari asosida baho berish bilan birga, bu atamalarning lug'aviy ma'nolarini parallel ravishda tushuntirishga harakat qilganlar.

Qushayriy maqomni bandaning qayta va qayta takrorlash natijasida fazilat holiga keltirgan odob va axloqi deb ta'riflaydi. Bu odob va axloq mehnat hamda sa'y-harakat natijasida erishiladi. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, arab tadqiqotchisi Amin Yusuf maqomning uchta xususiyatini

ko'rsatadi. Unga ko'ra, maqomning birinchi sifati: maqom solik uchun o'ziga xos ruhiy va jismoniy mujohada hamda riyozat vositasida erishiladi. Bu istivo (tenglik) va i'tidol (me'yoriylik) tushunchalari ma'nosida mavjuddir. Chunki ma'lum bir harakat va vaqtdan keyingina ishlar muvozanatli holga keladi.

Ikkinchi sifat esa davomiylikdir. "Bir narsani iqoma etdi (biror narsani ushlab turdi) degani "unga davomiy bo'lishni ato etdi" degan ma'noni anglatadi. Maqomga faqat solik bilan bir vaqtda uning baqosini davom ettirish orqali erishiladi.

So'fiylar hol tushunchasini ta'riflar ekanlar, uni to'g'ridan-to'g'ri ifodalagan bo'lsalar ham, o'zlari ta'kidlagan fikrga ko'ra "hala, yahulu", "holla", "havola", "hulul" kabi tushunchalar asosida izohlashga harakat qilganlar. Ko'rinib turibdiki, Junayd Bag'dodiy tomonidan ilgari surilgan holning beqarorligi to'g'risidagi qarashi, "hala" moziy fe'lining bir joydan boshqa joyga ko'chish ma'nosida ishlatilishiga asoslangan. Biroq Muhosibiyning ayrim hollarning davomiyligi haqidagi qarashlarida xuddi shu holning uzluksiz takrorlanishi kerakligi haqidagi fikr borligi sababli, bu yondashuvdagi hol atamasining izohlari "hulul" masdariga asoslanganligi aytiladi. Ya'ni, birinchisida (moziy fe'lida) "vaqtinchalik" bo'lsa, ikkinchisida (hulul masdarida) "o'rnashish, sobit qolish, davom etish" ma'nolari bor².

Maqom va holning bir-biriga aylanishi haqidagi ilk nazariyaning yaratuvchisi Qushayriy Junayd Bag'dodiyning "holda sabot yo'qdir" degan g'oyasiga asoslansa-da, Muhosibiyning qarashini hisobga olishga majbur bo'lgan. Muhosibiyning fikricha, qabz, bast, shavq va muhabbat kabi tushunchalar hol hisoblanadi. U muhibning muhabbati davom etmasa, muhibning muhib bo'lolmasligi va shavq kesilganda shavq ahlining shavqlarini yo'qotishini ta'kidlaydi. Bu ikki tamsilchining hollarning davom etishi va

2 ص. 26، 2001، س.رافال راد، ت.توريپ، ت.ام.المال وال.الوح.ال.الف.ء.ء.ارق. في.ف.وصل.ال.ر.ع.ش.ال.ت.ا.ي.ل.ج.ت. ءدو.ع.ف.س.وي.ن.ي.م.أ.

etmasligi haqidagi qarashlari iroqlik va xurosonlik so'fiylar o'rtasidagi eng asosiy farqlardan birini tashkil qiladi. Qushayriy Muhosibiyning yuqorida tilga olgan tushunchalaridan biri bo'lgan rizo tushunchasiga urg'u berib, ushbu ikki zid fikrni uyg'unlashtirishga harakat qilgan. Qushayriy "Risola" sida hol va maqomni tahlil qilar ekan, Iroq va Xuroson so'fiylarining rizo tushunchasi haqidagi fikrlarini hisobga olgan holda boshlagan. Xuroson so'fiylari rizoni maqom deb bilgan bo'lsalar, Iroq so'fiylari uni hol sifatida qabul qilib, bir-birlari bilan ixtilofga borganlar. Qushayriy bu ikki zid fikrni bir nuqtada birlashtirgan. U rizoni bidoyatda maqom va nihoyatda hol deb ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, rizo bidoyatda solikning mehnati bilan erishiladi; nihoyatda esa u g'ayrat va sa'y-harakat bilan erishib bo'lmaydigan narsa bo'lgani uchun hol sifatida tasniflanadi. Qushayriy bunday baho berishi orqali hol va maqom tahlilini boshlab bergan.

Qushayriy rizoning avval maqom yoki hol ekanligini baholashda avval uning maqom, so'ngra hol bo'lishi mumkin degan fikrni ilgari surar ekan, solikning rizosi ham hol, ham maqom bo'lishi mumkinligi haqidagi qarashi uning sulukda bidoyatda yoki nihoyatda ekanligi bilan bog'ladi. Boshqacha qilib aytganda, agar solikning sa'y-harakatlari natijasida rizoga erishsa, u rizo maqomiga aylanadi, o'zi rizo maqomida ekan Haq undan rozi bo'lib, rizo holini in'om etishi esa, rizoga hol xususiyatini beradi. Bu ayni paytda xurosonliklarning "hollar solih amallar natijasida erishiladigan narsalardir"³ degan qarashlariga mos keladi. Chunki solih amallar insonning o'z sa'y-harakati va mehnati bilan bajaradigan ibodatlarini hisorblanadi. Hol buning natijasidir deyish "avval maqomga erishiladi, so'ngra bu maqomning samarasi o'laroq hollar zuhur etadi" degan ma'noni anglatadi.

Qushayriyning rizoni avval maqom, so'ng esa hol deb ataganligi maqomning holga aylanishi

barovarida keltiriladi. Mutafakkirdan ikki asr keyin kelgan Suhravardiy bu fikrning mutlaqo aksini himoya qiladi. Garchi ularning harakati tahlil qilishga urinish bo'lsa-da, natijada ularning amalga oshirgan tahlillari bir-biriga mutlaqo zid edi. Chunki Suhravardiy holni maqomga aylantirish tarafdori edi. U umumiy iboralarni ishlatgan bo'lsa-da, ismini keltirmasdan, shayxlarning hol va maqom haqidagi so'zlarining juda farqli ekanligini va bu ikki tushuncha bir-birining o'rnida qo'llanganligini aytish bilan birga, holning davomiy yoki davomiy bo'lmasligi masalasida tasavvuf ahlining ikki buyuk olimi bo'lgan Junayd Bag'dodiy va Horis Muhosibiylarning bir-biriga zid qarashlarini tahlil qilishga kirishgan. Qushayriy bunday tahlili orqali hol va maqomni o'z o'rniga qo'yishga harakat qilgan.

Suhravardiy ushbu fikrning isboti uchun "muhosaba" tushunchasini misol qilib oladi. Uning fikriga ko'ra, muhosaba bandaning qalbida birdan paydo bo'lib, bir muddatdan so'ng nafsoniy istaklar ta'sirida yo'qoladi. Bu hol Haqning yordami kelguncha bir paydo bo'lib, bir yo'qoladi. So'ng Haqning yordami bilan muhosaba holi solik ustidan g'olib bo'lib, nafsning engilishiga olib keladi. Shunday qilib, muhosaba solikni to'liq qamrab, uni o'z ta'siriga oladi va uning nafsida tom ma'noda joylashib, maqomga aylanadi. Muhosaba maqomga aylanganda, "muroqaba" hol sifatida solikda namoyon bo'la boshlaydi. U ham vaqti-vaqti bilan o'zini ko'rsatib, yo'qoladi va oxirida muroqaba ham maqomga aylanadi. Muroqaba maqomi bilan birga mushohada hol sifatida namoyon bo'ladi. Bu hol fano filloh, baqo billoh va haqq al-yaqiynga qadar davom etadi⁴.

Suhravardiy "maqomlar kasbiy, hollar vahbiydir" degan qarashga ham oydinlik kiritishga harakat qilgan. Unga ko'ra, mavhiba (hadya) bo'lganlari kasb bilan o'ralgani kabi kasbiy bo'lganlari ham mavhibalar bilan o'ralgan.

3 ص. 471، 1983، ي.برعل بكتال راد، توري ب. فراوع باثك، ي.دوروسل.

4 ص. 469-470، 1983، ي.برعل بكتال راد، توري ب. فراوع باثك، ي.دوروسل.

Ya'ni, maqomda kasb va g'ayrat paydo bo'lganda, mavhiba jihati yashirin bo'ladi, holda esa mavhiba tomoni paydo bo'lsa, g'ayrat va harakat yashirin bo'ladi.

Suhravardiy o'z o'rnida maqom va holni zohir hamda botin kabi ma'naviy va samimiy ko'radi. Biroq Qushayriy aytgani kabi, biror bir maqomning o'ziga xos holi bo'lmay, balki quyi maqomda yuqori maqom hol sifatida namoyon bo'ladi. So'ngra bu hol insonning nafsida qaror topgach, maqomga aylanadi. Qushayriyda rizo bidoyatda maqom bo'lsa-da, keyin hol sifatida namoyon bo'ladi. Suhravardiyning holni maqomga aylantirishi vahdut ul-vujudni anglashda zot-sifat-ism munosabatlarida bo'lganidek zohir va botin aloqasi kabi holat mavjud. Ya'ni, muhosaba maqomida yuksak maqom bo'lgan muroqaba hol sifatida namoyon bo'lsa, muroqaba maqomida ham mushohada hol sifatida zuhur etadi.

Suhravardiy xurosonlik so'fiylarning "hol solih amallar natijasida erishilgan narsadir" degan qarashini etkazsa-da, unga hech qanday izoh bermaydi. Biroq "Hol chaqmoq kabidir, u porlaydi va darhol g'oyib bo'ladi. Agar u davomiy bo'lsa, bu hol emas, balki nafsning aldashi va vasvasasidir (hadisi nafs)" degan iborani shunday izohlaydi: "Bu gap hamma hollar uchun emas, ammo avval paydo bo'ladigan, so'ngra esa nafs tomonidan yo'q etiladigan hollar uchun to'g'ri keladi. Suv yog' bilan qo'shilmaganidek, hollar ham aslo nafsga qo'shilib ketmaydi"⁵.

Suhravardiyning yondashuviga ko'ra, hol tushunchasini ikki turga bo'lish mumkin. Arab tadqiqotchisi Amin Yusuf bunday turga bo'lishni shunday tushuntiradi: Birinchisi, vaqtinchalik, tez yo'qoluvchi hol, ikkinchisi, uzoq davom etuvchi hol bo'lib, bu hol yaxshi o'rnashgandan so'ng maqomga aylanadigan hol turidir. Bunda "Xo'sh, har qanday hol maqomga aylanishi mumkinmi?"

degan savol kelib chiqishi mumkin. Masalan, qabz, bast, haybat, uns kabi hollar maqomga aylana oladimi, degan savolga Suhravardiyda "ha" degan javobni topishning iloji yo'q"⁶. Suhravardiy har qancha uzoq muddatli va qisqa muddatli hollarni farqlamasa-da, bu farqlarni Qushayriyda ko'rishimiz mumkin. Qushayriy ushbu masalani shunday izohlaydi: Xudo inson uchun ba'zi hollarni rizq qilib beradi. Haq o'sha hol ichidagi kishiga uni to'siq va yopiq qiladi, bu holat undan oldinga chiqqunga qadar o'sha odam uchun bu hol vatan va maqomga aylanadi. Uning bu maqomdan uzoqlashishi ko'p vaqt talab qilmagani kabi uning bu holga qaytishi tez sodir bo'ladi.

Hol va maqom masalasi yechimidagi uchinchi nazariya Ibn Arabiyning yondashuvi hisoblanadi. U Junayd Bag'dodiy kabi oldingi so'fiylarning qarashlarini, avvalo, holni vaqtinchalik va vahbiy sifatida qabul qilishdan boshlaydi. Shayx ul-akbar holning davomli bo'lish va bo'lmasligini ko'rib chiqib, o'zidan oldingilarning ixtiloflarini tahlil etadi va yangi qarashlarni ilgari suradi. U buni amalga oshirar ekan, o'zining tajalliy tushunchasi va atamalarning etimologik tuzilishidan foydalangan holda yondashadi. Uning so'zlariga ko'ra, holdagi asosiy shart – bu zavol bo'lmaslik, ya'ni sobit bo'lmaslik va davomsizlik hisoblanadi. Shu bilan birga, ba'zi so'fiylarning o'z boshlaridan kechirgan hollarni tahlil qila olmaganliklari uchun hol borasida ixtilof yo'q, degan masala buzilgan. Bunga sabab, ba'zi so'fiylarning birin-ketin keluvchi o'xshash hollar izchilligini idrok eta olmaganliklaridan, aynan shu hol davom etayapdi deb taxmin qilishlaridan kelib chiqqan edi. Uning fikriga ko'ra, bu holat yagona holning davomiyligi bilan bog'liq emas; u zanjirli halqalari kabi bir-birini kuzatib boruvchi bir qator o'xshash hollardan iborat. Avval birinchisi paydo bo'ladi, o'rtaga chiqadi va so'ngra yo'qoladi. Shundan so'ng ikkinchi hol vujudga kelib, keyin u ham

5 ص. 473، 1983، ي. ب. ر. ال. ب. ت. ك. ل. ر. ا. د.، ت. و. ر. ي. ب. ف. ر. ا. ع. م. ل. ف. ر. ا. و. ع. ب. ا. ت. ك. ي. د. و. ر. س. ل.

6 ص. 27، 2001، س. ر. ا. ف. ل. ر. ا. د.، ت. و. ر. ي. ب. ت. ا. م. ا. ق. م. ل. ا. و. ا. ل. ا. ي. ف. ع. ا. ر. ق. ي. ف. و. ص. ل. ر. ع. ش. ل. ت. ا. ي. ل. ج. ت. ك. د. و. ع. ف. س. و. ي. ن. ي. م.

AMORALIZM VA IMMORALIZMNI OLDINI OLIISHDA ISLOM DINI QOIDALARINING AHAMIYATI

Odil Nodirovich Toshpulatov – bo‘lim boshlig‘i, Oliy
ta’limni rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Annotatsiya: Insoniyat diniy dunyoqarashi jamiyatdagi tartibsizliklarning oldini olish, fazilat egalarini kamol toptirish, mazmunli va uzoq umr ko‘rish va boshqa maqsadlar asosida shakllangan. Barcha dinlar mohiyatida gumanizm ulug‘lanib, amoralizm qoralanadi. Insoniyat tarixida turli-tuman dinlar mavjud bo‘lsada, ularning negizi bitta – odamlarni ezgulikka chorlash. Diniy dunyoqarash tarixan takomillashib, transformatsiyaga uchrab kelgan bo‘lsada, hanuzgacha ayrim jamiyatlar munosabatlarini tartibga solib kelmoqda.

Аннотация: Религиозное мировоззрение человечества формировалось на основе предотвращения социальных беспорядков, совершенствования добродетельных людей, ведения осмысленной и долгой жизни и других целей. В основе всех религий лежит прославление гуманизма и порицание безнравственности. Хотя на протяжении всей истории человечества существовало множество религий, их основная цель одна и та же — призывать людей к добру. Хотя религиозные мировоззрения исторически развивались и трансформировались, они по-прежнему регулируют отношения в некоторых обществах.

Abstract: The religious worldview of mankind has been formed on the basis of preventing social unrest, cultivating virtuous people, leading a meaningful and long life, and other goals. At the core of all religions is the glorification of humanism and the condemnation of immorality. Although there have been many religions throughout human history, their basic goal is the same – to call people to goodness. Although religious worldviews have historically developed and transformed, they still regulate relations in some societies.

Kalit so‘zlar: din, axloq, Islom, tasavvuf, Qur‘on, hadis, nafs, qadriyat, vijdon.

Ключевые слова: религия, мораль, ислам, суфизм, Коран, хадисы, душа, ценность, совесть.

Keywords: religion, morality, Islam, Sufism, Quran, hadith, soul, value, conscience.

Islom dini jamiyat axloqiy muhitini ijobiylik jihatdan tartiblashtirib turadi. Ushbu dinga e’tiqod qiluvchilar oilaviy-maishiy munosabatdan tortib, ijtimoiy muloqotgacha aniq tartib asosida yashaydilar. Islom dini amoralizm va jinoyatchilik avj olgan xalqlar orasiga ezgulik amallarini joriy qildi. Insoniyatning shu kungacha bir-birlarini qirib-bitirmasdan yetib kelishlariga boshqa dinlar kabi Islom dinining ham alohida o‘rni bor. Qur‘oni Karimda: “Kimki o‘z nafs baxilligidan saqlana olsa, bas, ana o‘shalar iqbollidirlar”, – deb yozilgan. Ya’ni kimki g‘ayriaxloqiy harakatlardan tiyilsa, o‘zganing haqqidan qo‘rqsa ma’naviy yuksaklikka erishadi. Din insonni axloqiy madaniyati va kamoloti tarbiyasida muhim o‘rin tutadi.

Din har qanday g‘ayriaxloqiy faoliyatga qarshi

turadi. Axloq diniy qoidalardan oziqlanadi. Dinning mohiyatini to‘liq anglab olib borilgan ijtimoiy targ‘ibot amoralizmni kamaytiradi. Inson axloqiy madaniyatini rivojlantirish har bir jamiyat va davlat hayotida ko‘ngilsizliklarni yo‘qotadi. Chunki insoniyat hayotidagi muvaffaqiyat, farovonlik bir-birlari bilan kelishib, g‘ayriijtimoiy odatlardan qutulishlari asnosida paydo bo‘ladi. Fundamentalizmga berilmagan holda sekulyar davlatga mos islom dini ta’limotlarini targ‘ib etish bugun dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ajdodlari madaniyatiga mos yoshlar buning uchun tinimsiz, o‘zini ayamadan xalqiga, ota-onasi va o‘zidan katta barchaga birday xizmat qilishi hamda alturistik fazilatni shakllantirishga intilishi zarur.

Islom dini mohiyatida musulmonlar ma’naviy